

OILADA YOSHLAR TARBIYASI

Ibadova Zamira Rashidovna

Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Yoshlarga oilada tarbiya berish jarayonida oilaning o`rni beiqosliligi ota-onaga hurmat barkamol inson bo`lib yetishida oilaning mahalla, madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlar olib borish.*

Kalit so`zlar: *ota-ona, oila, ta`lim, tarbiya, madrasa, odob-axloq.*

Annotation: *In the process of educating young people in the family, the role of the family is incomparable, respect for parents, and to work in cooperation with the neighborhood and cultural organizations of the family.*

Key words: *parents, family, education, training, madrasah, manners.*

Аннотация: *В процессе воспитания молодежи в семье несравнима роль семьи, уважение к родителям, работа во взаимодействии с соседскими и культурными организациями семьи.*

Ключевые слова: *родители, семья, воспитание, обучение, медресе, нравы.*

Bolalarning murg`ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta`sir etmaydi va barcha ibratlar ichida esa ota-ona ibratidan ko`ra chuqurroq va mustahkamroq o`rin oladigan ibrat yo`q.

N. I. NOVIKOV

Kirish:

Oila davlatning bir ajralmas bo`lagi hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasida oilaning o`rni beqiyosdir. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to`g`risidagi ma`lumotlarni berib borish, o`z navbatida huquqlaridan foydalanish yo`llarini ko`rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg`ularini hosil qiluvchi o`ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o`zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o`zi Vatanning bir bo`lagidir. Oila sha`ni nihimoya qilish, uni saqlash to`g`risida qayg`urishning Vatanning sha`ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg`ulari bilan uzviy bog`lik bo`lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo`lishi lozim.

Muhokama va natijalar

Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo`ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo`lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a`zolarining dunyo qarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma`naviy dunyosi o`ziga xoso`rintutadi. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogika bilimlarga ega bo`lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta`lim muassasalari o`rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g`oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko`rsatishdan iboratdir.

Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy munosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagani, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu jihatdan pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta'lim muassasasi – jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma'rifiy roli ular o'rtasidagi o'zaro robirlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularda unumli foydalanish talabi o'rta qo'yilmoqda.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiri. Yaxshi, solih farzand – ota-onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar “jannat rayhonlari” deb tavsiflanishi bejiz emas. U odobli, yaxshi fazilatlar sohibi, itoatkor va qobil bo'lganda ota-onasiga rahmat va baxt-xursandchilik keltiradi. Oilada yoshlar tarbiyasiga biz kattalar befarq qaramasligimiz shart va zarur. Sababi bizning kelajagimiz yoshlar deb aytamiz, lekin tarbiyasiga kelganda e'tiborsizlik va loqaydlik qilib tarbiyasi buzilishiga olib boramiz. Bola ona qornidayoq tarbiyalanishi yoki bo'lmasa ota-onaning o'zlari yaxshi tarbiyalanganligi bo'lishi shart. Ayniqsa ona ko'p jihatdan mas'uliyat yuklanadi. Shu sabab «onasi ko'rib qizini ol» degan dono xalqimiz.

Yoshlar tarbiyasi hamma davrlar, harqanday jamiyat uchun ham eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan.

Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida o'ziga xos va mos milliy, diniy qadriyatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an'analari “ommaviy madaniyat”, mentalitetimizga yot g'oya va qarashlar ta'sirida asl mohiyatini yo'qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. Ushbu jarayonga, ya'ni tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratmasak, ertaga kech bo'lishi, tuzatib bo'lmagan darajadagi oqibatlar olib kelishi mumkin. Zero, tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yohayot – yomamot, yonajot – yohalokat, yosaodat – yo falokat masalasidir” degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim. Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat

ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e'tiborni qaratib, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush yili nomlari bilan atalgan Davlat dasturlari va ularning amalga oshirilishi, xalqimizning yorqin kelajagi to'g'risidagi ezgu niyatlari ifodasidir. Dasturlar avvalo jismonan va ma'nan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini belgiladi.

Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo xayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro yohamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bo'lgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida e'tibor, mehr, g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotganligi e'tiborga molik. Mehribonlik uylari, maktab internatlarining va maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'rni buyuk.

Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o'z o'rinlarini topa olishida, kishilar o'rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o'rinlari muhimligini ta'kidlash lozim. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk bor hayot to'g'risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo'lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so'ngra jamoaga ko'chadi.

Yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun ta'lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish zarur bo'ladi. Shu bilan birga bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim bo'ladi. Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy

tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o'zlarining o'ta mas'uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo'ladi. Bu sohadagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz ma'naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur o'ylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan ma'naviy tarbiyani olib borish lozim bo'ladi.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda ularga ta'sir qiladilar.

Oilaning taqdiri esa insonning o'ziga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi.

Oila bu odobi axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir," – degan edi. Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-

tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g‘oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o‘zaro munosabati haqida to‘xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta‘siri birdek ekanligi, tan va ruh sog‘lomligining birligi kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko‘pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo‘yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Ana shunday durdona asarlardan biri A.Fitratning “Oila” asaridir.

Jumladan, A.Fitrat o‘zining mazkur asarida farzand tarbiyasida aqliy tarbiya, badan tarbiya va axloqiy tarbiyaning o‘rni muhimligini ta’kidlaydi. Mazkur uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O‘zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishingiz mumkin va qo‘lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo‘lmasa, aqli va jismoniy kuchini o‘zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘p harakat qilish lozimligini ta’kidlaydi, – A.Fitrat.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe’li va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o‘rtaga tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy ong, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzda bir maqsadga qaratilganini ta’minlaydi.

Abdurauf Fitrat axloqiy tarbiyani jismoniy va aqliy tarbiyadan keyingi – uchinchi bo‘g‘in tarbiya sifatida uqtirib, u “Insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a’zo qilib shakllantirish”, deb uni amalga oshirishning quyidagi tizimini taklif qiladi.

1. Bolaga hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini tushuntirish. A.Fitrat Shayx Muslihiddin Sa’diyning (XIII asr) maslagi va hikoyatlarini tavsiya qiladi, uning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarida kichik hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini bayon qiladi.

2. Tarbiyachining o‘zi ibrat bo‘lishi lozimligi. Tarbiyachining so‘zi bilan xatti-harakati uyg‘un bo‘lib, u xatti-harakati bilan barchaga ibrat, o‘rnak namuna bo‘lmog‘i lozim. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda “shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotida ibrat muhim o‘rin tutadi, inson fe’l-atvorini faqat pand-nasihati, dashnom va va’z aytishlar emas, balki munosabat va ibrat shakllantiradi”, jumladan, axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat uyg‘un holda in’ikosi etadi.

3. Yomonlarning yomonligini ko‘rsatib, yaxshilarning yaxshiligini uqtirib borishda muayyan ijtimoiy tuzum va muhitni hisobga olish, ya’ni axloqiy tarbiya real

voqelik va amaliy jihatlari bilan ma'naviy-axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi. Demak, axloqiy tarbiyani ongli va maqsadli olib borish funkcionalligini ta'minlash insonda ezgu axloqni shakllantirishga asos bo'ladi. Muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatlarining tizimli tahlili jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti taraqqiyotiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, karamlilik – saxovat, yaxshilik, demakdir. Bu halol va pok, mehnatkash, mehribon bo'lish va vijdon amriga bo'ysunib yashashdir. Karamlilik ma'naviy-axloqiy poklanish, nogironlarga, yetim-yesirlarga xayri-ehson, yaxshilik qilish, ularning ko'nglini ko'tarish, moddiy yordam berish kabi insoniy fazilatlarini qamrab oladi. A.Fitrat uni “odamlarga yaxshilik qilib, millatni yuksaltirish”, deb tushuntiradi.

A.Fitrat shijoat fazilatini izohlab shunday yozadi: “Mening orzuim, falon jamoani pismadon g'ayrisha'iy ishdan man' etishdir.... Bu esa mening ishim, birov meni bu vazifadan man' etolmaydi, chunki bu mening huquqimdir... Aslida komil inson bunday mushkilot va bema'ni to'siqlar andishasiga bormay erkinlik bilan haq-huquqlaridan foydalanadi va o'z vazifalarini bajo keltiradi”. Zero, shijoat insoniylik sharafi bo'lib, u insonga qadr-qimmat ato qiladi. Shijoatning haqiqati qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iborat. Bu axloqiy fazilat zamirida maqsadlar sari intilish tuyg'usi mavjud. Har bir shaxsda mazkur tuyg'u shakllantirilishi, uning ongi va qalbiga mazkur fazilat urug'i sepilishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar zanjirining keyingi halqasini sabotlilik fazilati tashkil etadi. U – ulug' maqsadga yetishish uchun qat'iy harakatdir. Ulug' ishlar va buyuk maqsadlarga intilgan odamni hech bir qiyinchilik va to'siqlar to'xtata olmaydi, balki besabr va shoshqaloq insonlar hayotda o'z maqsadlarini amalga oshira olmaydi, natijada, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga raxna soluvchi illatlar ildiz otishiga sabab bo'ladi. Olimlar sabotlilik fazilati jamiyatda mo'tadil muhitni qaror toptishrida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, ushbu fazilat, avvalo, har bir kishida, qolaversa, ijtimoiy faol va albatta, tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilarda bo'lishi kerakligini ta'kidlab, kishida sabotlilik fazilatini shakllantirish izchil va uzviy amalga oshiriladigan iroda quvvati va halol mehnatni talab qiladi. Bu fazilat insonni kashfiyotga boshlaydi. A.Fitrat bunga qiziqarli bir hikoyatni misol keltiradi. Xorun ar-Rashid (IX asr) zamonida musulmon madaniyati rivojlandi. Hatto, soat ixtiro qilindi. Xorun ar-Rashid ulardan birini Franso (Fransiya) hukmdoriga yubordi. Hukmdor ajoyib sovg'adan hayratga tushdi, soatni ayonlariga ko'rsatdi. Ayonlari hayratda qolib, xulosa qildilarki: “Ahli islom qutining ichiga shaytonni solib yuborganlar”. A.Fitrat xulosa qiladiki, bugun endi fransolar sabot bilan rivojlanib, sanoatdagi ixtirolari bilan shaytonni hayratga solmoqdalar. Yana bir ma'naviy-axloqiy fazilat halimlilik bo'lib, odamni odamga birodar va do'st qiluvchi, yaxshilik va ezgulikka chorlovchi xususiyatga ega. A.Fitrat “Komilu olim insonlar nafslarini (o'zliklarini) shunday tarbiyalaydilarki, natijada, afv va madora, muloyimlik odatlariga aylanadi” deb yozadi. Demak, halimlik afv (kechirimlilik); murosas (kelishuvchanlik); muloyimlik (mo'tadillik) kabi xulqlarni shakllantirish orqali yuzaga keladi. O'zligida halimlik fazilati bo'lgan kishi ruhan kuchli, xushxulq, nodonlikka qarshi kurashuvchi tinchliksevar insondir. Halimlikni mazmunan to'ldiruvchi fazilat sadoqatlilik va sadoqat ko'rsatish, ya'ni insoniy va fuqarolik huquqlarimizdan foydalanish, barcha burch va vazifalarimizni hazrati inson mavqeiga

munosib bajarishni anglatadi. Sadoqat ijtimoiy axloq tizimi sifatida insonni ikki olamda baxtga yetaklovchi va ma'naviy-axloqiy omildir. "Bu dunyoda mo'tabar, oxiratda baxtiyor bo'lishni istaganlar, – deb yozadi A.Fitrat, – o'zlarida sidq (sadoqat M.Q.)ni paydo qilib, doimiy odatlariga aylantirishlari kerak. Ijtimoiy aloqalarning yagona nazoratchisi sidqu sadoqatdir". Kishi o'zligidagi sadoqat tuyg'usi bilan ijtimoiy foydali shaxsga aylanadi. Sadoqat ezgu ishlarga fidoyi bo'lish natijasida shakllanadi. Shu ma'noda, sadoqatli kishi haqiqatgo'y shaxs sifatida talqin qilinadi. Agar oilada sadoqat bo'lmasa, u uyda osoyishtalik ham bo'lmaydi, shu boisdan, u avvalo mikro muhitdagi axloqiy harakat va munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar uzviyligi va funksionalligini ta'minlashda qanoatning o'ziga xos o'rni bo'lib, u insonni voqeiylikda halol mehnat orqali topilgan ne'matlarga shukur qilib yashash orqali insoniy martabani saqlash va yaxshilikka intilishdir. O'z davrida A.Fitrat o'z zamonida tarkib topgan qanoat talqinini tanqid qilib, "Biz turkistonliklarda ajib bir holat borki, axloqiy fazilatlarini va shar'iy amrlarni yo bilmasdan, yo bilib, ya'ni qasddan xato, g'alati tushunamiz. Masalan, bugun uyda o'tirib, hech yerga chiqmay, sa'y-harakat qilmay, qotgan nonga rozi bo'lishlikni qanoat deb o'ylaymiz" deb yozgan. Bu qanoat emas, balki tanballik va noshudlikdir. Qanoat ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida mavjud narsalarga shukur qilish, nafsni jilovlash zamirida axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat orqali o'zi va xalqiga manfaat keltiruvchi faoliyatdir. U insoniylikni saqlovchi mezon, axloqning tarkibiy qismi sifatida mavjud ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va rivojlantirishda axloqiy nazorat, axloqiy boshqaruv va axloqiy tarbiya vazifasini bajaradi. Chunki yuqorida keltirilgan zanjir xalqalari tizimida axloq ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy muhitda ijtimoiy tarbiyani amalga oshiradi. Qizig'i shundaki, axloqni ijtimoiy tarbiya va ongning hosilasi sifatida tushunish islom madaniyatida ham bo'lgan. Abu Nasr Forobiy ilmi, aqlli bo'lishni axloq fazilatisiz tasavvur qilmagan, "bilim, aql, albatta, yaxshi axloq bilan bezalmog'i lozim", deydi.

Xulosa

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlarini o'sa boshlaydi. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmuni tashkil etilishiga oid pedagogik omillar mavjudki, bularni hisobga olishga majburdirmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mir Arab o'rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi Maqsudjon Akramov
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018 y.



4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: Ma'naviyat, 2000. B-83.